

« KONGLISH » SO‘ZLAR TILNING RIVOJLANISHIMI YOXUD BUZILISHI?



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653576>

Axmedova F.A.

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Xuramova D.R.

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

Axtamova Guljahon

SamDCHTI 1-kurs koreys tili yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada asosan koreys tilining inglizcha so‘zlarni o‘zlashtirib olishi tarixi, yoyilib ommalashuviga sabab bo‘lgan voqea hodisalar, kirib kelishiga turtki bo‘lgan dastlabki omillar haqida malumotlar to‘plandi. Bundan tashqari «Konglish» atamasi ma‘nosi mazmun mohiyatiga alohida urg‘u berib o‘tilgan. Ushbu tushuncha qo‘llanishilishi haqida hamda bu kabi so‘zlarning yoyilishi ommalashishida insonlarning fikri, umumiy xulosalari keltirilgan.

«Korea+English»- «KONGLISH»- ikki mamlakat tilidagi so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan so‘zlar, ya‘ni ingliz tilining koreys tili tomonidan o‘zlashtirilib, koreys tiliga moslashtirilishi. Bunday so‘zlar zamonaviy hozirgi koreys tilida juda ommalashgan hisoblanadi. Konglish so‘zlarning vujudga kelib, taraqqiy etishining asosiy sabablaridan biri AQSHning dunyo hamjamiyatining eng rivojlangan davlatlar qatorida yuqori o‘rinda turishita‘siri desak ham mubolag‘a bo‘lmagan bo‘lar edi.

***Kalit so‘zlar:** «Konglish» so‘zlarning kirib kelish tarixi; yarmi inglizcha yarmi koreyscha, talaffuz jihatdan farqlanuvchi hamda 2 ta inglizcha So‘zdan qo‘shib yasalgan ammo sof ingliz tilida mavjud bo‘lmagan Konglish so‘zlar, Konglish so‘zlarning keng tarqalish sabablari, insonlarning ushbu hodisaga munosabati.*

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена истории приобретения корейским языком английских слов, событиям, приведшим к его распространению, и исходным факторам, приведшим к его появлению. Кроме того подчеркнуто значение термина «конглиш», есть общие мнения и общие выводы об использовании этого понятия и популярности таких слов.

«Korea + English» - «KONGLISH» - слова, образованные от сочетания слов в языках двух стран, т.е. английский ассимилирован корейским языком и адаптирован к корейскому языку. Такие слова очень популярны в современном корейском языке. Не будет преувеличением добавить, что одной из главных причин возникновения и развития конголезского языка является влияние США в мировом сообществе среди наиболее развитых стран.

Ключевые слова: <Konglish> История введения слов; наполовину английский, наполовину корейский, разное произношение и сочетание двух английских слов, но не доступных в чистом английском конглишских словах, причины преобладания конглишских слов, реакция людей на это явления.

ABSTRACT

The article focuses on the history of the Korean language's acquisition of English words, the events that led to its spread, and the initial factors that led to its introduction. Besides the meaning of the term "Konglish" is emphasized. There are general opinions and general conclusions about the use of this concept and the popularity of such words.

«Korea + English» - «KONGLISH» - words formed from the combination of words in the languages of the two countries, i.e. the English is assimilated by the Korean language and adapted to the Korean language. Such words are very popular in modern Korean. It is no exaggeration to say that one of the main reasons for the emergence and development of the Congolese language is the influence of the United States in the world community among the most developed countries.

Keywords: <Konglish> history of the introduction of words; half English, half Korean, pronunciation-different, and a combination of two English words but not available in pure English Konglish words, reasons for the prevalence of Konglish words, people's reaction to this phenomenon.

KIRISH

Har bir tilda qisman qarz so‘zlar, o‘zlashtirilgan so‘zlar kabi iboralar mavjud. Bu tabiiy holdir. Fan, madaniyat, taraqqiyot turli mamlakatlarda turlicha tezlik bilan rivojlanayotgani uchun ma’lum bir yangilik, tovar, kashfiyot va shunga o‘xshash narsalarni o‘sha mamlakat tilidagi so‘zlar ya’ni o‘z nomlari bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri qabul qilmoqdamiz.

«Korea+English»- «KONGLISH»- ikki mamlakat tilidagi so‘zlarning birikuvidan hosil bo‘lgan so‘zlar, ya’ni ingliz tilining koreys tili tomonidan o‘zlashtirilib, koreys tiliga moslashtirilishi. Bunday so‘zlar zamonaviy hozirgi koreys tilida juda ommalashgan hisoblanadi. Konglish so‘zlarning vujudga kelib, taraqqiy

etishining asosiy sabablaridan biri AQSHning dunyo hamjamiyatining eng rivojlangan davlatlar qatorida yuqori o‘rinda turishita’siri desak ham mubolag’a bo‘lmagan bo‘lar edi.»Konglish» so‘zlarning Janubiy Korea hududiga kirib kelish tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, 1910-1945-yillardagi Yaponiya istilosi natijasida Janubiy Korea Yaponiyaga mustamlaka davlat bo‘lib qoldi va Yaponiya orqali dastlabki inglizcha so‘zlar kirib kela boshlaydi. Keyinchalik ikkinchi jahon urushidan so‘ng AQSHning Janubiy Koreani bosib olib, oltmish yil davomida ushbu mamlakatda mustamlakachilik siyosatini olib borgani «Konglish» so‘zlarning yoyilishigachuqurroq ta’sir etishiga olib keldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bunday so‘zlar ingliz tilidan koreys tiliga turli xil o‘zlashtirilgani uchun ona tilisi ingliz tili bo‘lgan asl ingliz xalqiga uncha tushunarsiz so‘zlar hisoblanadi. Chunki bu so‘zlarning ma’lum qismi inglizcha, [1,37] qolgani koreyscha yoki bo‘lmasam, inglizcha so‘zlarning koreys tilida qo‘pol qilib aytganda talaffuzi buzilib aytilgan yoki yozilgan variantidir. Ushbu so‘zlarning talaffuzi buzilib yozilishi yoki aytilishining asosiy sababi bu ikki tildagi artikulasiya, akustikadagi farqlar hamda ba’zi harflarning koreys tili alifbosida mavjud emsligidadir. Buni yanada yaxshi anglash uchun koreys alifbosida uchramaydigan va ularning o‘rnida koreys tilida qo‘llaniladigan harflarni solishtirib ko‘rsatib o‘tamiz:

B-ㅂ ushbu harf B deya talaffuz qilinsada bazi hollarda P deya talaffuz etilishi ham mumkin.

C-ㅅ ushbu harf S deya talaffuz qilinsada bazi hollarda SH yoki T sifatida ham qo‘llaniladi.

F-ㅍ koreys alifbosida F harfi yo‘qligi uchun ushbu qattiq P (pxe) harfiga almashtirilib qo‘llaniladi. Yoki bazi hollarda F harfi o‘rniga 화 harflar yig‘indisi Qo‘llangan hol ham mavjud (화 이 텡).

G-ㄱ ushbu harf ham bazi hollarda G deb o‘qilsa bazi hollarda K deb o‘qiladi.

H-ㅎ ushbu harfni asosan koreyslar bilinar bilinmas talaffuz qilishadi ya’ni uncha kuchli talaffuz qilishmaydi hamda bazi hollarda bu harf T deb o‘qilishi ham mumkin.

I-ㅇ bilamizki bu harf ingliz tilining o‘zida ikki xil talaffuz etiladi.

(ai ya’ni (ay)) -koreys tilida Y harfi yo‘qligi uchun ushbu tarzda talafguz qilinadigan so‘zlarda a+i sifatida talaffuz qilinadi.(i) sifatida talaffuz qilinsa muammoga uchralmaydi chunki bunday tovush mavjud.

J- ㅈ ushbu harf ham [35,15] bazi hollarda J bazi hollarda Ch deb talaffuz qilinadi. Kup hollarda Ch talaffuzini uchratish mumkin.

K- ㅋ bu tovush bor.

L- ㄹ mana shu tovush ham sal muammo tug‘dirishi mumkin chunki bu harf ba’zi hollarda R ba’zi hollarda L deya talaffuz qilinadi. Ko‘pincha L deya talaffuz qilinadi.

M- ㅁ ushbu tovush mavjud.

N- ㄴ bu harf ham mavjud.

O- ikki turdagi O mavjud bular: ㅓ(ou) va ㅗ(o)

P- ikki turdagi P mavjud bular ㅍ(b,p) va ㅑ(pxe) ya’ni qattiq P.

Q- ushbu harf ham koreys alifbosi va tovushlar tizimida mavjud emas shuning uchun bu harf K ya’ni ㅋ ga moslash tirilib aytiladi.

R- ㄹ asosan L deb talafguz qilinadi R sifatida aytiladigan so‘zlari juda kam. Deyarli faqat kirib kelgan so‘zlardagina R sifatida aytiladi.

S- ㅅ, ㅆ ushbu harf ham C harfida berilgan ma’lumotni yoqlagan holda bazida Sh deb ba’zida S deb ba’zida T deb talaffuz qilinadi.

T- ㅌ bu harf mavjud.

U- ㅜ bu harf ham mavjud.[36, 50]

V- ushbu harf koreys alifbosida mavjud emas. Shuning uchun B-ㅍ harfiga moslashtirilib talaffuz etiladi.

W- bu harf ham V harfiga o‘xshagani uchun V harfidagi berilgan ma’lumotni yoqlaydi.

X- 엑스(ek si) bu harfni yozish uchun deyarli 2 bo‘g‘indan iborat so‘z qo‘llaniladi

Y- ushbu harfning ham koreys alifbosida aynan to‘g‘ri tushadigan harfi mavjud emas xuddi I harfiga o‘xshab ketadi.와 이(vai) yoki 아이 (ai) sifatida talaffuz qilinadi.

Z- з [37,54] bu harfning ham aynan talaffuzi yo‘q shuning uchun J harfiga monand talaffuz qilinadi.

Mana yuqorida ingliz tili hamda koreys tili alifbosini taqqoslab keltirib o‘tdik. Mana shu yerdan ham nima uchun talaffuzlar buzilishi ro‘y berayotganini bilish, sezish mumkin.

Yarmi inglizcha yarmi koreyscha «Konglish» so‘zlarga:

다운 받다---- Download

(Daun patta) (yuklab olmoq)

채팅 하다-----Chatting

(Cheting hada) (sms orqali gaplashmoq chat qilmoq)

메뉴판-----Menu

(Me nyu pan) (menu)

(Pan qushimchasi bu yerda menyu taxtachasi yoki menyu qogozini degan manoni anglatmoqda.) kabi so‘zlarni misol qilib keltirsak bo‘ladi.

Inglizcha talaffuzi o‘zgartilrib yoziladigan yoki aytiladigan konglish so‘zlarga esa quyidagilarni misol qilib ko‘rsatishimiz mumkin:

온라인----- online

(mel lon)

(On la in)

와이파이-----wi fi

파인애플----- pineapple

(ua I pa i)

(pa in e pil) (ananas)

메시지-----message

망고-----mango

(Me shi ji) (sms)

(mang go)

아이스크림----- ice cream

스트레스-----stress

(Ai si ki rim) (muzqaymoq)

(sl ti re si)

커피----- coffee

라 임----- lime

(Ko pi)

(la im)

슈퍼마켓----- supermarket [38,59]

(Shyu po ma ket)

어터바이-----motorbike

(o to ba i) (mototsikl)

카드----- card

(Ka di) (kartta)

서비스----- servise

(So bi si)

멜런-----mellon

Bu kabi so‘zlar koreys tilida juda ham bisyordir.

Yana misol sifatida quyidagi 2ta inglizcha so‘zdan qo‘shib yasalgan ammo sof ingliz tilida mavjud bo‘lmagan konglish so‘zni ko‘rsatishimiz mumkin.

핸드폰----- qo‘l telefoni

(hen di pon) (hand phone)

Ayniqsa so‘nggi paytlarda «Konglish» so‘zlar Janubiy Korea madaniyati, tilshunosligi umuman, turmush tarzida keng tarqalgan. Bugungi kunda Janubiy Korea tili leksikologiyasi qarz so‘zlarining, ya’ni o‘zlashma so‘zlarining 90 foizidan ortiqrog‘ini ingliz tilidan o‘zlashtirilgan» Konglish» so‘zlar tashkil etishi esa bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Janubiy Koreaning ingliz tilini koreys tili va koreys madaniyatiga tezkorlik bilan qabul qilishi mamlakatning globallashuvga bo‘lgan umumiy munosabati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ta’lim-taraqqiyot [2,20] tomondan nazar tashlaydigan bo‘lsak universitetlar o‘rtasidagi hamkorliklarning hozirgi tendensiyalari va tadqiqot tarmoqlarining kengayishi G‘arbiy Xitoy, Yaponiya, Janubiy Korea munosabatlarida ingliz kompetentsiyasining muhim ta’lim va iqtisodiy rol o‘ynashiga imkon beradi. Ushbu yangi sanoatlashgan davlatlarda yuqori texnologiyali mahsulotlardan foydalanishning ko‘payishi- ingliz tilidan so‘zlarning qabul qilinishi ortishi uchun imkoniyat yaratdi. (Simon Maeda, 1995; Sheperd 1996).

Yoki bo‘lmasam bunga yana bir sabablardan biri o‘zini- o‘zi tanqid qilish bilan bog‘liqligi bo‘lishi ham mumkin. Nima uchun o‘zini-o‘zi tanqid qilish deb savol tug‘iladigan bo‘lsa, quyidagicha javob berish mumkin. Yuqorida aytib o‘tilgandek, koreys alifbosida ingliz alifbosidagi hamma harflar ham mavjud emas.

Shuning uchun koreyslarda inglizcha so‘zlarning talaffuzi jarayoni nisbatan qiyin kechadi. Shuning uchun koreys xalqi o‘zini-o‘zi tanqid qilib ingliz tiliga katta urg‘u bergani sababli deb ham, ingliz tilini yoyilishini aytishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Zamonaviy koreys tili so‘z boyligining muhim qismi o‘zlashgan so‘zlar «sinizmlar»dan tashkil topgan.»Tanganing ikki tomoni bo‘ladi» Deyishganidek, bu masala ham juda ko‘p fikr va tortishuvlarga to hozirgacha sabab bo‘ib kelmoqa. Shimoliy Korealik [2,28] yozuvchi janob Pak tilga:»Nafaqato‘zining targ‘ibotini olib borish uchun foydali vosita, balki mafkurasiniva sotsializm qurilishini mustahkamlash uchun «qurol»«- deya ta’riflab, chet el tillariga o‘z ona tiliga nisbatan katta e’tibor qaratish xalqni o‘zligidan ayirishga olib kelishi mumkin degan fikrni bildiradi.»Soxta inglizcha lug‘at» kitobining muallifi bo‘lgan koreys- ingliz tarjimoni Ah Jung Hyo «Konglish» so‘zlarining boshqa mamlakatlarda noto‘g‘ri ishlatilishi, ehtimol Janubiy Koreaga sharmandalik keltirishi mumkinligi haqida ta’kidlagan edi.Biroq «Korea Times» gazetasi sharhlovchisi Jon Xyer Konglishdan foydalanishni «Korea haqidagi eng ajoyib 10 ta fakt»ida qayd etdi. Jasper Kim Enhwa Womans Universityning huquqshunos professori «Konglish»ni global kontekstda zarur ekanligini aytgan. Bundan tashqari Janubiy Korea Respublikasida ingliz tilini ikkinchi chet tili sifatida qabul qilish borasida juda ko‘p bahs va muzokaralarolib borilgan. Ammo bu masalaning ham ijobiy , ham salbiy tomonlari tarozida bir xil tosh bosayotgani uchun aniq qaror qabul qilinganicha yo‘q.

TAKLIF VA XULOSALAR

«Konglish»ga turli nuqtai nazardan boqib, turli xulosaga kelish mumkin.Bir tomondan tilning buzilishi deyish ham mumkin , lekin bir tomondan ancha vaqt mustamlaka tuzumida yotgan davlatning [5,18] globallashuvha kirshib ketishi deb tariflasak ham noto‘g‘ri emas Hozirgi taraqqiyot hamda jahon standartlari bevosita ingliz tili bilan bog‘liqligi buning isbotidir. Bugungi kunda ingliz tili deyarli batcha mamlakatlarga tarqalib no ramsiy bo‘lsada dunyoning ikkinchi tiliga aylandi. Bugungi kunda barcha Xalqaro shartnomalar , hujjatlar , turli tashkilot, fondlardagi idoraviy ashyolar hamma- hamamsi ingliz tilida yuritilmoqda. Shuning uchun ingliz tilini bilish davr talabi bo‘lib qoldi.Axir aytishadiku,»Til bilgan el biladi».Hozirgi zamonda taraqqiyot bir joyda turmayapti, hamma rivojlanmoqda, dunyo o‘zgarmoqda ingliz tili esa mana shu rivojlanishda g‘arouib bir ko‘prik vazifasini bajarmoqda. Bu bilan ona tilini unutib faqat ingliz tiliga urg‘u berish degani emas lekin ikki tilni ham

barobar urganish juda yaxshi deb hisoblagan bulardim. Oan tili bilan bir qatorda yana bir til bilish zarar qilmaydi aksincha dunyo eshiklarini ochishda bizga as qotadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. David B. Kent Konyang university- KOTESOL PROCEEDINGS OF PAC2 (THE SECOND LAN ASIAN CONFERENCE, 1999 SEOUL) 197-bet
2. Uz.wikisko.ru Konglish
3. Арнольд, И.В. Стилистика. Лексикология современного английского языка: учебное пособие / И.В. Арнольд. - М.: Флинта, 2012. - 303 с.
4. Vaugh and Thomas Cable. A History of the English Language (D. Appleton-Century Company, 1935) — six editions to 2013.-455p.
5. В.Виноградов. Современный русский язык, вып. 1: Введение в грамматическое учение о слове. — М., 1938.-200 с.
6. Asrorovna, A. F. (2021, October). PROBLEMS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 80-84).
7. Гальперин, И.Р. Очерки по стилистике английского языка. Опыт систематизации выразительных средств: монография / И.Р. Гальперин. -М.: Едиториал УРСС, 2012. - 376 с.
8. Nicolas Tranter. Hybrid Anglo-Japanese loans in Korean (Linguistics 35 (1997), 133–166 0024–3949/97/0035–0133© Walter de Gruyter)
9. Kent, D. B. (1999). The discourse of Konglish: A Socio-historic analysis of English as a native partof the South Korean vernacular. Unpublished doctoral dissertation, Knightsbridge UniversityTorquay, UK.
10. «Корееведение Казахстана» вып. 5. Алматы: КазУМОиМЯ им. Абылай хана. 2017. – С.150.
11. Lee, Chang-Sup. 2012. “Konglish: Media Must Use Correct English” The Korea Times. 2nd February. Accessed 6th June 2012.55p.
12. Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. –М.,1974.-47 с.
13. Paul C. Exploting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. – University of Toronto. 2010. 34p.
14. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь–справочник лингвистических терминов. –М.: Просвещение. 1976.199
15. Sang-Cheol Ahn, Kyunney Egorova. Morpho-phonological patterns of recent korean neologisms. Advances in Social Science, Education and Humanities Research, volume 531.2020.p. 62-68.

16. Speaking in Tongues: Chinglish, Japlish and Konglish DAVID B. KENT Konyang University. THE SECOND PAN ASIAN CONFERENCE, SEOUL. 1999. p. 124
17. Trudgill, 1983, p. 13.
18. Хомский Н. Картезианская лингвистика. М., 2005. – С. 49.
19. Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. -Л., Изд-во АН СССР. Т.1. 1958.40-42.
20. Shepard, 1997, p. 2.
21. Choi, Jungwha. 2006. “Interpreting Neologisms Used in Korea’s Rapidly Changing Society: Delivering the Meaning of Neologisms in Simultaneous Interpretation” Meta: Translators’ Journal Vol 51, No 2, pp 188.
22. Циньсян В. Русские неологизмы – универбы способы образования, семантика, особенности функционирования. –Санкт-Петербург, 2016. –С.15
- a) Koreys tilidagi adabiyotlar ro‘yxati
23. 국어 어문 규정집. 교육과학기술부. 대학교과서(주). Korea,2010.98p.
24. 김관해.국어 어휘론 개설. 서울,1993.45p.
25. 대조언어학.허용/김선정.소통.Korea,2016. 18p.
26. 박기천.현대 중국어 문화콘텐츠 신조어 연구. 청주대학교 대학원 중어중문학과 석사학외논문.2013.42p.
27. 심재경.생활속 영단어. Korea,2005. 201p.
28. 유호. 한-중 생활분야 신조어 비교연구; 사회-문화적 양상을 중심으로.2013.89p.
29. 정미란. 현대 중국어 신조어 연구.2006.13p.
30. 정인교-양영석.신조어의 생산성 분석에 관한 연구.2000.65p.
31. 조은영.어휘적 연어의 형성과 유추.2010.48.p.
- Foydalanilgan lug‘atlar ro‘yxati**
32. 기록학용어사전.서울:역사비평사.2008.47p
33. 김춘식.한국어-러시아어사전.서울.2008.-206,478,911p.
34. 김석주,이승녕 국어사전. 서울:동아출판사.1986.132-650p

35. 이기문. 새국어사전.서울.2004.67,59,308p
36. 철학사전. 서울: 중원문화.2009,16
37. 통합논술 개념어 사전. 서울:청서.2007.34p
38. Devoni lug‘otit turk. I,II,III Tomlar. Fanlar akademiyasi nashriyoti. Toshkent, 1963. 81 b.
39. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2020. A-Z.
40. Standard Dictionary of the Korean Language. 표준국어대사전. Korea, 2012
41. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь–справочник лингвистических терминов. –М.: Просвещение. 1976.
42. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
43. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
44. Джураев, Д. М. (2017, January). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
45. Odil o‘g‘li, T. I. (2021, October). Qadimgi Xitoy Madaniyatining Shakllanishi. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 137-139).
46. Tojiboev, I. O. U. (2021). CHINESE ARCHITECTURE. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 40-42.
47. Odil o‘g‘li, T. I. The history of the origin of the Chinese language and the work done to date.
48. oglu Tojiboyev, I. O. (2021). On the use of modern pedagogical technologies and general grammar in the teaching of English. Science and Education, 2(8), 718-720.
49. Odil o‘g‘li, T. I. (2021). METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH. World Bulletin of Social Sciences, 1(1), 23-25.
50. Odil o‘g‘li, T. I. (2020). Flactors in speech development in English and other languages. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(3), 144-146.